

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Shokirova

Amaliy ishlataladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash 734

G.N.Shokirova

Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash 738

M.A.Abdurahimova

O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish 742

B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev

Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish 745

U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova

Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi 749

G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova

O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 754

D.Sh.Sultonov

O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati 757

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov**

Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration) 762

O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva

Agrotourism as a factor of sustainable rural development 765

I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari 770

R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova

Ulkan to'g'onlar geografiyasи va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar 778

R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov

Farg'ona vodiysi relefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish 783

A.A.Xamidov

O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi 788

R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari 793

N.O'.Komilova

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi 798

J.J.Mamatisakov

O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni 803

D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova

Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish 807

L.M.Saydaliyeva

Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlari 813

A.E.Madraximov

Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar 819

EKOLOGIYA**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li 822

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM" 827

M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva

Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi 831



**INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA CHORVACHILIK SOHASINI
RIVOJLANTIRISH**

**DEVELOPMENT OF LIVESTOCK INDUSTRY BASED ON INNOVATIVE
TECHNOLOGIES**

РАЗВИТИЕ ЖИВОТНОВОДСТВА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Boboyev Baxromjon Kenjaevich¹

¹q.x.f.n., dotsent Farg'ona davlat universiteti

Usmonov Odil Kamilovich²

²q.x.f.n., Farg'ona davlat universiteti

Kabilov Soxibjon Sherovich³

³q.x.f.n., dotsent Farg'ona davlat universiteti

Xoliqov Muxridin Baxromjon o'g'li⁴

⁴o'qituvchi Farg'ona davlat universiteti

Maxammadaliyev Maxmudjon Botirjon o'g'li⁵

⁵Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Respublikamida chorvachilik soxasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy amaliy ishlarni va xalqaro xamkorliklarni yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish, qishloq joylarining rivojlanishi xamda axoli farovonligini oshirishda, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq joylarda axoli bandigini ta'minlashda fermer va dexqon xo'jaliklarining o'rni muxim rol o'yynashi bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Аннотация

В статье раскрыта роль фермеров и крестьянских хозяйств в создании необходимых условий для устойчивого развития животноводческих отраслей республики, развития научных исследований и международного сотрудничества на основе новых инновационных технологий, развития сельских территорий и повышения благосостояния населения, а также отведена важная роль обеспечению продовольственной безопасности и занятости населения в сельской местности.

Abstract

In the article, the role of farmers and peasants in creating the necessary conditions for the sustainable development of the livestock sector in the Republic, developing scientific research and international cooperation based on new innovative technologies, developing rural areas and improving the well-being of the population, as well as ensuring food security and employment of the population in rural areas. the issues related to playing an important role are highlighted.

Kalit so'zlar: chorvachilik, innovatsiya, texnologiya, seleksiya, naslchilik, kadrlar tayyorlash, ilmiy saloxiyat, ozuqa baza, gidroprik, yashil ozuqa.

Ключевые слова: животноводство, инновации, технологии, селекция, селекция, подготовка кадров, научный авторитет, кормовая база, гидропоника, зеленые корма.

Key words: animal husbandry, Innovation, technology, selection, breeding, personnel training, scientific authority, natural base, hydroponics, green feed.

KIRISH

Fransuz olimi Jan Jak Russoning quyidagi so'zlaridan boshlashni lozim topdik, ya'ni: Xar qanday davlatni mustaqilligini saqlovchi bir omil bor - bu uning qishloq xo'jaligidir. Butun dunyo


boyliklari qo'lingda bo'lsayu, yeyishga narsangiz bo'lmasa – siz boshqaga qaramsiz! Savdo boylik yaratса, qishloq xo'jaligi ozodlikni nafaqat ushlab qoladi, balki rivojlantiradi... deyilgan. Chorvachilik qishloq xo'jaligining eng muxim tarmog'i bo'lib, xalqimizni sut, go'sht, tuxum, asal, baliq va boshqa oziq – ovqat maxsulotlari xamda yengil sanoatni turli xom – ashyo bilan ta'minlashda muxim axamiyatga ega. Xozirgi vaqtida chorvachilik eng sertarmoq soxalardan biri xisoblanadi. Uning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, quyonchilik, asalarichilik, pillachilik bo'lsa, so'nggi yillarda uning tarkibi yangi tarmoqlar, ya'ni mo'y nabop xayvon turlari xamda, ko'l va sun'iy intensiv baliqchiligi va xokazolar bilan boyitilmoqda.

Respublikamida chorvachilik soxasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart – sharoitlar yaratish, ilmiy – amaliy ishlarni yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish, qishloq joylarining rivojlanishi xamda axoli farovonligini oshirishda, shuningdek oziq – ovqat xavfsizligi va qishloq joylarda axoli bandligini ta'minlashda fermer va dexqon xo'jaliklarining o'rni muxim rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar nafaqat axoli manfaatlarini oshiradi balki, qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishda muxim qadam bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevnng 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Agrar soxada eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi soxasida yetarli bilimga ega emasligidir. To'g'ri, ularda kuch – g'ayrat, tashabbus, yerga mexr bor, ko'pchiligining ko'zi yonib turibdi. Lekin afsuski, birgina xoxish bilan biz yuqori xosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz. Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan xavodek zarur" deyilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda qishloq xo'jaligining o'ta muxim yo'nalishlaridan biri xisoblangan chorvachilik tarmoqlarida seleksiya naslchilik ishlarini dunyodagi ilg'or tajribalar xamda zamonaviy texnologiyalar va ilm – fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, butun chorvachilik tarmog'ini iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muxim axamiyat kasb etadi. O'sib kelayotgan mamlakatimiz axolisini chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish ichki iste'mol bozorlarida go'sht, sut, tuxum, asal, baliq va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqarish xajmlarini yanada ko'paytirish xamda ularning narxlari barqarorligini doimiy ta'minlash eng muxim ustivor vazifalardan biri xisoblanadi.

Respublikada qishloq xo'jaligi maxsulotlari yalpi ulushining 44 foizi chorvachilik tarmoqlari maxsulotlari xisobiga to'g'ri kelishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muxtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil iyun oyidagi Farg'ona viloyatiga tashriflarida Farg'ona davlat universitetida "Zootexniya" fakultetining ochilishi xamda "Asalarichilik" va "Anorchilik" yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavriatlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Xozirda Vengriya qishloq xo'jaligi v xayot fanlari universiteti Farg'ona davlat universiteti bilan xalqaro xamkorligi doirasida Agrar qo'shma fakulteti tashkil etildi. Fakultet qoshida tuproqshunoslik axoli tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o'simliklar va mevachilik va sabzavotchilik kafedralari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Yana bir yangilik Farg'ona davlat universiteti qoshida ushbu soxalarni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi qurilayotgan Farg'ona eko shaxrida O'zbekiston Qaxramoni, universitetning faxriy professori, xurmatli va aziz bo'lgan raxmatli Lolaxon opa Murodova nomidagi qishloq xo'jaligi kasb-xunar fermerlar maktabining ochilishi kelajakda yoshlarni ushbu soxalarga qiziqtirish, kasb – xunarga o'rgatish, bilimli yoshlarni keyingi oliy o'quv yo'nalishlariga tayyorlashdan iborat. Shuning uchun kelajakda ushbu soxalarni yanada rivojlantirish, ilmiy saloxiyatni yanada oshirish va chorvachilik soxasini oliy ma'lumotli, yetuk zooinjeneriya mutaxassislari bilan ta'minlash maqsadida Farg'ona davlat universiteti Agrar qo'shma fakulteti qoshida qo'shimcha 60840100 – Veterinariya meditsinası (faoliyat turlari bo'yicha) va 60811500 – Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishlarini ochish va qo'shimcha kvotalar olish maqsadga muvofiq bo'ladi deb xisoblaysiz. Bu esa chorvachilik yo'nalishidagi naslchilik toifasidagi xo'jaliklarida oliy ma'lumotli zooinjeneriya mutaxassislarining nazariy olgan bilimlarini amaliyotga bog'lash, chorva xayvonlarning maxsulotlilik xususiyatlarini yaxshilash, ozuqa bazasini yaratish, ularni to'la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash, pushtdorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, seleksiya – naslchilik ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat bo'ladi. Respublikada chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishda so'nggi yetti yil mobaynida misli ko'rilmagan darajada isloxotlar olib borilmoqda, buni tom manoda uchinchi renessans davri deb atasa bo'ladi. 2016-2023 yillar davomida prezidentimiz Shavkat Miromonovich

BIOLOGIYA

Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan 2 ta farmon, 30 ga yaqin qaror, vazirlar Maxkamasining 50 dan ortiq qarorlari bilan O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mtasini rivojlantirish va chorvachilikda ilm-fanni rivojlantirish istiqbollari belgilab berilgan. Oxirgi yillarda Respublikamizda iqtisodiy isloxtlarni amalga oshirilishi, chorvachilik fermer xo'jaliklariga katta



e'tibor qaratilayotganligi, chorvachilikda ozuqa bazasini mustaxkamlashda sug'oriladigan yerlardan oqilona foydalanib, ozuqabop ekinlardan yuqori xosil olish xisobiga ozuqa ishlab chiqarishni ko'paytirish, xamda yangi innovatsion texnologiyalar asosida qo'shimcha jadal usulda gidropnika texnologiyasi asosida yashil ozuqasini yetishtirish masalalarini yechish chorvachilik soxasi xodimlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.



Gidropnika usulida ko'k ozuqa yetishtirish texnologiyasi.

Respublika va Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida yuqori maxsulorlikka erishish ko'p jixatdan ozuqa zaxirasining mustaxkamligiga bog'liq, bunda kuz, qish va baxor mavsumlarida ekin maydonlarida yetarli ozuqabop ekinlar bo'limgan davrda yangi innovatsion yuqori samarali jadal (intensiv) usulda avtomatlashtirilgan gidropnik texnologiyasi asosida yashil chorva ozuqasini yetishtirish boshqa ozuqabop ekinlarni yangi turlarini ekish va chorva xayvonlarini maxsulorligini oshirish, chorvachilik maxsulotlarini ko'paytirish xamda axolini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 29 yanvar PQ 4576-sonli qarori.
2. Ashirov M.E va boshqalar. Fermer va dexqon xo'jaliklari xamda axoli xonadonlarida qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent 2019-yil.
3. Xamdamov X.A va boshqalar. Chorvachilikka faol investitsiyaning asosiy mezonlari. (sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik fermalarini samarali boshqarish bo'yicha qo'llanma) Toshkent 2020-yil.
4. Usmonov.O.K, Boboev.B.K Yosh qoramollarni o'stirish va bo'rdoqiga boqish. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE «PROSPECTS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN NEW UZBEKISTAN»
5. Usmonov.O.K, Boboev.B.K, Maxammadaliev M.B SIGIRLAR EKSTERERINI BAXOLASHDA GAVDA TUZILISHINING AXAMIYATI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE «PROSPECTS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN NEW UZBEKISTAN»
6. Boboev.B.K, Maxammadaliev M.B GIDROPONIKA TEKNOLOGIYASI ASOSIDA UY SHAROITIDA KO'K OZUQA YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE «PROSPECTS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN NEW UZBEKISTAN»